

## PERSEPTIV QOBILIYATNING PEDAGOGIK FAOLIYATDAGI ILMIY- NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika va Psixologiya mutaxassisligi  
2- bosqich magistranti*

**Kamolova Ozodaxon Muzaffar qizi**

*Tel raqam: +998978260208*

*Email address: kamolovaozodaxon27@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada perseptiv qobiliyatning pedagogik faoliyatdagi ilmiy-nazariy metodologik asoslari haqida nazariyalar, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining perseptiv qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan fikrlar, kasbiga oid mahoratini yuksaltirishda ham pedagogik, ham psixologik nazariyalar berish, hissiy idrokni yuksaltirish hamda bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining hissiy idrok qilish bosqichlari haqida fikr yuritilgan*

**Kalit So'zlar:** *o'qituvchi, perseptiv qobiliyat, hissiy idrok, intuitsiya, sensualizm, mahorat, ta'lim-tarbiya, tarbiyalanuvchi, metodologiya, kasbiy sifatlar, pedagogik faoliyat.*

### KIRISH

Hozirgi kunda jahon miqyosida shiddat bilan o'zgarib borayotgan ilm-fan biz pedagoglarga juda katta mas'uliyat yuklamoqda. "So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda"

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzasida "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odo-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uygun bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" degan fikr mulohazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalardan biri ekanligi gavdalanadi.

### ASOSIY QISM

Metodologiya- yunoncha "metodos" – bilish, yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot va "logos" – fan degan ma'noni bildiradi. U metodlar haqidagi ta'limotdir.

Bo'lajak yosh kadrni to'rt yil mobaynida puxta va sifatli kadr qilib tarbiyalashda albatta perseptiv qobiliyatini shakllantiruvchi metodologik nazariyalar as qotadi.


Qolaversa, bo'lajak o'qituvchilarning perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati yuzasidan fikrlar tobora past va o'z o'rnini pastki o'rinlarda ko'rsatmoqda. Sababi kasbga oid mahoratini shakllantirishda pedagogik-psixologik nazariyalarning ahamiyati

ilm dargohlaridagi bo'lajak yosh kadrlarimiz tomonidan yaxshi o'zlashtirilmayotganligidir. Yosh o'qituvchi avvalambor, kasbiy sifatlar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishi va shu sifatlar yosh kadrda shakllangan bo'lishi, uni kundalik faoliyatida to'g'ri qo'llay bilishi kerak. O'zi kasbiy sifat nima degani va u nima uchun kerak?

Kasbiy sifat- muayyan bir taraqqiyot bosqichidagi mutaxassis sifatida o'zida turli xil sifatlarni mujassam etgan shaxs. Bu sifat barcha turdagi kasb egalari uchun birdek zarur.

O'qituvchining kasbiy sifatlarini o'rganishda A chizmaga qaraymiz.

### A-chizma. O'qituvchining kasbiy sifatleri.




Bundan tashqari, yosh kadr bo'lmish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining perseptiv( keyingi o'rinlarda hissiy idrok deb yuritiladi) qobiliyatini rivojlantirish, uning ichki bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sohasi, individual psixologik xususiyatlari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayonida yuzaga keladigan psixologik, fiziologik va jismoniy o'zgarishlarni o'z irodasiga tayangan holatda his etib, perseptiv qobiliyatini ishga solishi va bolaga to'g'ri maslahat bera olishi, yo'l ko'rsata olishi o'rganiladi. Shu yerda bir savol tug'ilishi mumkin. Perseptiv qobiliyat nima va u yosh kadrlarga nima uchun kerak?

Perseptiv qobiliyat bu qisman idrok bilan bog'liq. Ya'ni, sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi.

Misol uchun, kishi narsa-hodisalarning ayrim xossalarini sezadi va uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki narsa va xossa bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarini sezadi. Masalan: olma qandni idrok qilinadi, uning shirinligi seziladi. Quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligi seziladi va boshqalar. Xuddi shunday, o'qituvchi bolani tashqi va ichki olamidagi to'lqinliklarni ham sezishi kerak. Ya'ni, bola uyidan xafa bo'lib maktabga keldi va o'qituvchi buni sezmedi, bolaga biroz qattiq gapirib qo'ydi. Bu uning psixologiyasiga qanchalar salbiy ta'sir ko'rsatadi. U uyidan xafa bo'lib kelgani yetmaganday, ustozidan ham dakki eshitishi uni anchagina tushkunlikk olamiga cho'ktirib yuboradi. Natijada bola na kitob o'qigisi keladi, na sinfiga qo'shila oladi, na birov bilan muloqot qiladi. Buni oldini olish uchun, o'qituvchi perseptiv( keyingi o'rinlarda hissiy idrok) qobiliyatidan foydalanish muhim rol o'ynaydi. 1 – ilovaga e'tibor qaratamiz.

1 – ilova. Hissiy idrok qilish bosqichlari va uning tartiblanishi.



Barchamizga ma'lumki, insonda fan tan olgan 5 ta sezgi mavjud. Biz olamdan

hid bilish, ko'rish, eshitish, ta'm bilish, teginish orqali olamdan ma'lumot olamiz. Endi mana shu sezgilarimizni samarali va sinxron ishlashiga siz bilmaydigan oltinchi sezgingiz javob beradi. Savol tug'ilishi mumkin, axir 5 ta sezgimiz bor-ku, 6 - sezgi nima ekan? Bu intuitsiya.

□ Intuitsiya- (lot. Intuitus – sinchiklab qarayman) haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyati.

Masalan, kimdur limon yeganini gapirdi, siz uni ko'z oldingizga keltirasiz, his qilasiz va birdaniga og'zingizga limon ta'mi keladi. Siz uni ko'rmadingiz-ku, faqatgina uni nominigina eshitganingizda sizda hid bilish, ta'm bilish, ko'rish va teginish hislari ham limonni hidlagandek, yegandek, ko'rgandek va ushlab ko'rgandek his paydo qiladi. Endi buni mavzuga qanday aloqadorligi bor deyishingiz mumkin. Bo'lajak yosh o'qituvchi o'quvchilar va vaziyatlarni tahlil qilishi, nima bo'layotganini yaxshiroq tushunish uchun oldindan sezishi kerak. O'quvchi siz bilan suhbatlashib nimalarni his qilyapti? U nimani o'ylayapti, orzu qilayapti va nimani xohlayapti? Siz o'z o'quvchilaringizni sirini fosh qiladigan josus yoki detektiv kabi bo'lishingiz kerak. O'quvchilarning fikrlari, istaklari va hohishlariga to'g'ri yondoshishingiz, har xil mayda-chuyda narsalarga, g'alati narsalarga e'tiborli bo'lishingiz, atrofingizdagi o'quvchilaringizni va ular bilan yuzaga keladigan vaziyatlarni muntazam ravishda tahlil qilishni bilishingizda mana shu oltinchi hissiyot deb atalmish intuitsiya yordam beradi. Uning ikkinchi nomi ichki maslahatchi deb ham ataladi. Intuitiv maslahat tashqi tomondan berilgan aniq tavsiyalar kabi juda foydali bo'lishi mumkin.

Agar bo'lg'usi o'qituvchi hissiy idrokini ishga solgan holda perseptiv qobiliyatini namunali foydalansa ayni muddao bo'lar edi. Keling hissiy idrok haqida gaplashamiz. O'zi u nima? Nega aynan hissiy? Savollar yog'ilaveradi. Agar biz his qila olmasak, idrok qila olmaymiz. Idrok qilmasak, bizda perseptiv qobiliyat deyarli shakllanmagan bo'ladi. Bunda biz sensualizm bilish nazariyasiga asoslanamiz.

□ Sensualizm (lot. Sensus- sezgi, his) – bilish nazariyasida sezgilarni bilishning fundamental manbai deb e'tirof etuvchi yo'nalish.

O'z-o'zidan mavjud soha deb bilgan mashhur idealistlar J. Berkli va D. Yum, hissiy bilish tashqi dunyo bilan bog'lanmagan deb e'tirof etishgan. P. Gassendi, T. Gobbs, J. Lakk, K. Gelvetsii, D. Didro, P. Golbaxning fikricha, hislarda bo'lmagan narsa aqlda ham bo'lmaydi

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz izlansa, o'zligini ko'rsata olsa, ilm dargohlarida tahsil olish mobaynida nima uchun o'qiyotganligini va kelajakda u tayyorlagan har bir tarbiyalanuvchi O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarishi kerakligini his qilib, mas'uliyat bilan izlansa, albatta shak-shubhasiz u yetuk kadr bo'lib yetishadi. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisini ilm dargohlarida to'rt yil mobaynida tahsil olishi jarayonida, ularning ongiga shaxsga xos sifat, xususiyat, holatlar, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri va mazmunli tashkil qilishning yoshga bog'liq jihatlarining psixologik mexanizmlarini ishlab chiqishini singdirish o'rganiladi. Buning uchun o'qituvchilarning kasbiy mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muvofiq. Chunki, hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijobiy fikrlash, tadqiqotchilik ishlarini o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo, tadqiqotchilik ishlarini olib borishi va bu sohadagi malakalarni egallashi zarur. Bolaga nisbatan ota-ona, maktab, jamiyat e'tiborsizligi oqibatida turli-xil salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, e'tiborsizlik, manqurtlik, egoistlik, jinoyatchilik, huquqbuzarlik kabi salbiy alomatlarga ro'jo' qo'yishi hech gap emas

O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi davomida, tajribalarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim bilimlarni egallaydi. Kasbiy mahoratni takomillashtirishda shaxsiy pedagogik izlanishning ahamiyati kattadir. O'qituvchi ishidagi muvaffaqiyatni kunlik faoliyatida kattalar va bolalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyatini ta'minlaydi.

“Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilat egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz. Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or-xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim. Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur” .

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Normativ – huquqiy hujjatlar ro'yxati:

1. Sh Mirziyoyev “ O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni, 06. 11. 2020 - yildagi P F - 6108 - son
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston”, 2017

3. Mirzayev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha —Xarakatlar strategiyasill. - T.: O‘zbekistonl, 2017.

4. Mirzayev Sh.M. Yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish bo‘yicha besh tashabbus. - T.: Siyosatll, 3 aprel 2019 yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari» to‘g‘risida qarori, Toshkent. 24 aprel 2017 yil,

6. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyatl, 2008  
Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro‘yxati:

1. F. R. Abdurahmonov, Z. E. Abdurahmonova “KASB PSIXOLOGIYASI”, Toshkent, 2018

2. Klimov Ye. A. «Obshaya psixologiya». – С p b., Piter, 2001

3. Radugina A. A. Pedagogika i psixologiya. - M., 2007.

4. Rubinshteyn S. L. Osnovy obhey psixologii. – S p b: Piter, 2007. N. S. Safayev, N. A. Mirashirova, N. G. Odilova “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: darslik. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

Maqolalar ro‘yxati:

5. Kamolova Ozodaxon Muzaffar qizi “O‘qituvchi hamda ota-ona o‘rtasidagi muloqot jarayonining turli unsurlari”, Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences: a collection scientific works of the International scientific conference, ITALIA, March, 2023.

6. Kamolova Ozodaxon Muzaffar qizi Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining persektiv qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari, Международный научный журнал, Новости образования исследование в ХХИ веке, Научный импульс, Россия, 359 – 360, Декабря, 2023.

#### **ELEKTRON POCHTA MANZILLAR RO‘YXATI:**

1. <http://books.google.co.uz/books/S.K.Mangal>

2. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)